



TURK XALQ MAQOLLARIDA SHAXS XUSUSIYATLARINING IFODALANISHI

Ergasheva Dilshoda Abdusalomovna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika

instituti tillar fakulteti tyutori

Tel: +998939919140

dilshodamuslimabonu@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalq maqollarida bo'lgani kabi turk xalq maqollarida shaxs xususiyatlarining turli jihatlari, ifodalanishi, ma'no xususiyatlari turli misollarda izohlanadi. Jumladan, maqollardagi metafora, o'z va ko'chma ma'no maqol semantikasini boyitishga xizmat qilishi, leksik-semantik jihatdan tugal ma'no ifodalashi izohlanadi.

Kalit so'zlar: xalq maqollari, janr ,shaxs xususiyatlari, maqol semantikasi, o'z va ko'chma ma'no, istiora, tazod san'ati.

Maqol hamma xalqlar og'zaki ijodida uchraydigan janrdir. Har bir xalq o'z hayotiy boy tajribalarini maqollar shaklida kelgusi avlodga qoldiradi. Tarixdan ma'lumki, xalqlar hayotida juda ko'p o'xshashlik bor, shuning uchun ko'p xalqlarning maqollari o'xshashdir. Ijtimoiy hayotning deyarli hamma sohasi xalq maqollarida aks etadi.

Adabiy voqea-hodisalarning o'xshashligi, bir tomondan, xalqlarning ijtimoiy va madaniy rivojlanishidagi o'xshashlikka, ikkinchi tomondan esa, ular o'rtasidagi madaniy va adabiy aloqalarga asoslanadi. XX asr rus adabiyotshunoslaridan N.I.Konrad, V.M.Jirmunskiy, V.Ya.Propp, I.G.Neupokoyeva va boshqalar adabiyotlar va folklorni



qiyosiy o'rganishda o'xshashliklarni nafaqat syujet yoki motivlarning oddiy ko'chishi sifatida, balki tipologik hodisalar sifatida izohlaydilar.

Tillar o'rtasidagi genetik qarindoshlik mavjud tillardagi maqollarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Makur maqolada turk xalq maqollarini tahlil qilar ekanmiz, o'zbek va turk tili yagona bir manba (bobo til)dan kelib chiqqanligiga bir qancha asos ham topamiz. Eng qizizg'i buni qalban his qilib turamiz. Biz ikki tilda mavjud maqollarni tahlil qilish jarayonida shaxs xususiyatlari orqali ikki tildagi so'zlarning o'zaro yaqinligini ham ko'ramiz. Maqol janri tilda asrlar davomida shakllanib sayqal topgan tayyor nutqiy qolipdir. Bunday birlikdan o'rinli foydalanish so'zlovchi nutqini boyitadi va fikrini go'zal tarzda dalillaydi. Maqollarda mazmun talabi bilan o'z ma'no ham, ko'chma ma'no ham o'rni bilan ifodalanadi. Turk maqollarida ham xuddi shunday. Masalan, "Akıl yaşda değil baştır" maqoli qisqa, lekin semantik jihatdan tugal va keng mazmunga ega. "Yaş" va "baş" so'zlari qofiya jihatidan hamohanglikni ta'minlasa, mazmun jihatidan zidlikni ifodalaydi. Aynan ana shu qarama-qarshilikni ifodalagan "yaş" va "baş" so'zlari maqol mazmunini ochib beruvchi kalit so'zdir. Turk va o'zbek maqollarini o'xshash jihatlariga nazar salsak, ushbu ikkala millatda ham vatanparvarlik, do'stlik, hallolik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, adolat kabi tushunchalar doimo madh etilgan. Maqollar har qanday tilning lingvopoetik jihatini aks ettiruvchi birlikdir. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib ularning leksikikasi, semantikasi, eksprissiv bo'yoqdorligi, ifoda maqsadi ushbu maqolamizning maqsadidir. Bu jihatdan o'zbek tiliga qardosh til hisoblangan turk tilidagi maqollar maqolaning ob'yekti hisoblanib, biz ushbu tildagi maqollarda ifodalangan shaxs xususiyatlarini tahlil etamiz. Turk tilida mavjud "Adam ahabından bellidir", "Ağaç yaş iken eğilir", "Akıl akıldan üstündür", "Allah karına göre kar verir", "Altın pas tutmaz", "Aza kanaat etmeyen çoğu hiç bulamaz", "Bilmemek ayıp değil, sormamak ayıp", "Cahile söz anlatmak, deveye hendek atlatmaktan zordur", "Doğrunun yardımcısı Allah'tır", "Gülme komşuna, gelir başına", "Güvenme varlığa, düşersin darlığa", "Hatasız kul olmaz", "Her işin başı sağlık", "Huylu huyundan vazgeçmez", "İş insanın aynasıdır" "İyilik eden iyilik bulur", "Kusursuz dost



arayan dostsuz kalır” kabi maqollarda turkiy qavmlarning barcha millatlariga xos bo‘lgan shaxs xususiyatlarini ko‘ramiz(8). Yuqorida ko‘rsatilgan maqollardan “Bilmemek ayıp değil, sormamak ayıp” maqoli o‘zbek tilida ham shu mazmunda mavjud. “Kusursuz dost arayan dostsuz kalır” maqoli ham xuddi shu mazmunda tilimizda mavjud. “Altın pas tutmaz” maqoli bizda “Oltin zanglamas” tarzida qo‘llaniladi va uning asl ma‘nosi halol, mehnatkash va vijdoni toza insonga hech kim dog‘ tushira olmaydi mazmunini ifodalaydi. Yoki “Hatasız kul olmaz” maqoli o‘zbek tilidagi “Beayb parvardigor” maqoliga mazmunan mos keladi. “Huylu huyundan vazgeçmez” maqoli tilimizdagi “Bukrini go‘r tuzatadi” maqolini eslatadi (7). Turk tilidagi maqollarda shaxs xususiyatlarini tahlil qilish chog‘ida ma‘noviy jihatdan dinimizdagi ikkinchi muqaddas manba bo‘lgan hadislarga juda yaqin ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, “Akıl akıldan üstündür” maqolining mazmuni diniy manbalarga borib taqaladi. “Allah dag‘ına göre kar verir” maqoli ham diniy manbalarda mavjud bo‘lgan “Alloh insonga toqatidan ortiq sinov bermaydi” degan mujda bilan mazmunan hamohangdir.

Ko‘rinadiki, maqollar inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Turli tillardagi maqollarni mazmuniga diqqat qilar ekanmiz, unda shaxs xususiyatlarini o‘zida qamrab oluvchi maqollar tarbiyaviy ahamiyatga ega kuchli vosita ekanligini ko‘ramiz. Insonga xos oliyjanob fazilatlar ham, qusurlar ham maqollarda qo‘llanilib, o‘quvchiga oq bilan qorani ajratishga yordam beradi. Maqollarda uyadosh so‘zlar, metaforalar, zid ma‘noli so‘zlarning qo‘llanilishi fikrning qisqa va lo‘nda ifodalanishiga xizmat qiladi hamda tashbeh, tazod kabi badiiy san’atlarni yuzaga keltiradi (5).

Xulosa qilib aytganda biz qaysi tilga mansub maqollarni tahlil qilmaylik umumbashariy fazilatlar barcha millatlar uchun birdek ahamiyatli ekanligini ko‘ramiz. “Acele işin sonu pışmanlık” maqolida ham barcha insoniyat uchun xos bo‘lgan jihat shoshilmaslikka da‘vat qilinadi. Maqollar insoniyat tajribasi ko‘zgusidir. Turk xalq maqollari ham turk millatining aql-zakosini, boy tajribasini aks ettiradi(4). Maqollarda til ifodasi o‘ziga xosligi, kam so‘z bilan ko‘p ma‘no ifoda eta olish xususiyati, zamonlar osha



o'z ahamiyatini yo'qotmasligi diqqatga sazovordir. Qardosh til bo'lgan turk tilidagi shaxs xususiyatlarini o'zida ifoda etuvchi maqollar o'zbek tilidagi maqollar bilan shakl va mazmun jihatidan juda yaqin yoxun aynan ekanligini ko'ramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ömer Asım Aksoy, Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, İnkılap Yayınları, İstanbul, 2013.
2. Pala, İskender. Sözün Özünden Dünden Bugüne Atasözleri, Kapı Yayınları, İstanbul, 2013.
3. Mirzayev T. O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2012. – 512 b.
4. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010.
5. Файзиева, Азиза Анваровна. "ОРИЕНТАЦИОН КОНЦЕПТУАЛ МЕТАФОРАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ." In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION", vol. 1, no. 4, pp. 26-29. 2022.
6. Файзиева, Азиза Анваровна. "МЕТАФОРА ТАРЖИМАСИГА ТУРЛИ ҚАРАШЛАР: Fayziyeva Aziza Anvarovna, Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrası o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti."
7. <https://www.milliyet.com.tr/galeri/atasozleri-ve-anlamlari>